



INGLIZ TILINI MUSTAQIL O'RGANISHDA RAQAMLI AMALIY LOYIHALARDAN FOYDALANISH TEXNOLOGIYASI

Mamatqodirova Gulnigor Rustamjonovna

(Texnika va Iqtisod yo'nalishidagi oliy ta'lim muassasalari talabalari misolida)

Annotatsiya. Ushbu maqolada ingliz tilini mustaqil o'rganishda raqamli amaliy loyihalardan foydalanishning nazariy va amaliy jihatlarini keng yoritilgan. Ayniqsa, texnika va iqtisod yo'nalishida tahsil olayotgan talabalar uchun bu texnologiyalar nafaqat til ko'nikmalarini rivojlantirish, balki kasbiy faoliyatga tayyorlashda ham muhim vosita ekanligi tahlil qilingan. Raqamli platformalar, onlayn loyihalar va interaktiv topshiriqlarning samaradorligi, ularning bosqichma-bosqich qo'llash texnologiyasi va talabalarga ta'siri ilmiy asosda yoritilgan.

Kalit so'zlar: ingliz tili, mustaqil ta'lim, raqamli texnologiyalar, amaliy loyiha, texnika ta'limi, iqtisodiy ta'lim, innovatsiya.

Globallashuv jarayonida ingliz tili dunyo miqyosida nafaqat xalqaro aloqa vositasi, balki kasbiy muvaffaqiyat kaliti sifatida ham tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Oliy ta'lim muassasalarida, xususan texnika va iqtisod yo'nalishlarida tahsil olayotgan talabalar uchun ingliz tilini puxta egallash shaxsiy hamda kasbiy rivojlanishning zaruriy sharti hisoblanadi. Ingliz tilini o'zlashtirish jarayonida nafaqat an'anaviy o'quv-uslubiy vositalar, balki zamonaviy raqamli texnologiyalar va amaliy loyihalar ham muhim ahamiyat kasb etadi. Mustaqil ta'lim jarayonida talabalarning faolligini oshirish, ularga yangi imkoniyatlar yaratish va o'qituvchi-talaba munosabatlarini yangicha asosda tashkil qilish uchun raqamli amaliy loyihalardan foydalanish eng samarali yo'llardan biri sifatida ko'rilmogda.

Raqamli amaliy loyihalar mohiyatan talabalarning ingliz tilida real vaziyatlarga mos faoliyat turlarini bajarishiga asoslanadi. Masalan, texnika yo'nalishi talabasi ingliz tilida dasturiy ta'minot loyihasiga oid texnik hujjatlarni ishlab chiqishi yoki iqtisod yo'nalishi talabasi ingliz tilida biznes-reja taqdimotini tayyorlashi mumkin. Bu kabi faoliyatlar orqali talabalar nafaqat ingliz tilida muloqot ko'nikmalarini rivojlantiradilar, balki kasbiy terminologiyani o'zlashtiradilar va ijodiy, tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini ham kengaytiradilar. Raqamli texnologiyalardan foydalanishning afzalligi shundaki, ular ta'lim jarayonini faqat auditoriya doirasida emas, balki mustaqil o'rganish jarayonida ham samarali tashkil etish imkonini beradi.

Bunday loyihalarni amalga oshirish bosqichma-bosqich olib boriladi. Avvalo, loyiha mavzusi tanlanadi va uning maqsadi belgilanadi. Keyingi bosqichda loyiha uchun zarur platforma va dasturiy vositalar aniqlanadi. Masalan, matn va hujjatlarni tayyorlashda Google Docs, jamoaviy ishlarda Trello yoki Padlet, grafik ishlarda Canva, til ko'nikmalarini mustahkamlashda esa Duolingo kabi vositalardan foydalanish mumkin. Shundan so'ng talabalar ingliz tilidagi manbalarni yig'ib, tahlil qilib, ularni amaliy loyihaga tatbiq etadilar.





Yakunda esa tayyorlangan loyiha ingliz tilida taqdim etiladi yoki onlayn konferensiya orqali muhokama qilinadi.

Raqamli amaliy loyihalar talabalarning mustaqil ishlash ko'nikmalarini rivojlantirish bilan birga ularni xalqaro standartlarga mos ravishda tayyorlashga xizmat qiladi. Bunday jarayonda talabalarda kommunikativ ko'nikmalar shakllanadi, jamoaviy ishlash malakasi mustahkamlanadi va kasbiy muloqotda o'zini erkin tutish qobiliyati paydo bo'ladi. Bu ayniqsa texnika va iqtisod yo'nalishidagi talabalar uchun katta ahamiyatga ega, chunki ular kelgusida xalqaro hamkorlikdagi loyiha va dasturlarda faol ishtirok etishlari kutiladi.

Amaliy misollarga murojaat qiladigan bo'lsak, texnika yo'nalishida tahsil olayotgan talabalar ingliz tilida dasturiy ta'minot loyihasiga oid hujjatlarni ishlab chiqib, ularni xalqaro tanlovlarga taqdim etishlari mumkin. Iqtisod yo'nalishidagi talabalar esa ingliz tilida biznes-reja yaratib, uni onlayn simulyatsiya tarzida investorlar bilan muhokama qilishlari mumkin. Xalqaro ta'lim loyihalarida ishtirok etayotgan talabalar ingliz tilida hujjat tayyorlash va jamoaviy muhokamalarda qatnashish orqali o'z bilimlarini yanada mustahkamlash imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Raqamli amaliy loyihalar o'qituvchilar uchun ham yangi metodik yondashuvlarni talab etadi. Bunda o'qituvchi an'anaviy bilim beruvchi emas, balki talabani yo'naltiruvchi va ko'makchi sifatida ishtirok etadi. Loyihalarni tashkil etishda talabalarning qiziqishi va ehtiyojidan kelib chiqib mavzular tanlanishi muhimdir. Har bir loyiha aniq natija bilan yakunlanishi, ya'ni talaba ingliz tilida yangi bilim, ko'nikma yoki mahsulot yaratishi lozim.

Shu bois ingliz tilini mustaqil o'rganishda raqamli amaliy loyihalardan foydalanish texnika va iqtisod yo'nalishidagi talabalar uchun innovatsion ta'lim texnologiyasi sifatida qaralishi mumkin. Bu metod talabalarning ingliz tilida erkin fikrlash, kasbiy muloqotda qatnashish va o'z bilimlarini amaliyotda qo'llash imkoniyatini kengaytiradi. Natijada ular xalqaro mehnat bozorida raqobatbardosh kadr sifatida shakllanadilar.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Paltridge, B. (2006). Discourse Analysis: An Introduction. Continuum.
2. Maxamatjanova, N. M. Choriyeva ARQ ASTMANI KUCHAYTIRUVCHI PSIXOLOGIK OMILLAR. In *Academic research in educational sciences.*–2025.–№2. Conference (pp. 99-102).
3. Gafurova, S. S. (2025). COMBINATION OF IRRITABLE BOWEL SYNDROME WITH ANXIETY PHOBIC SYNDROME DURING PREGNANCY AND THE EFFECTIVENESS OF MEDICAL PSYCHOLOGICAL SUPPORT IN IT. *JOURNAL OF EDUCATION AND SCIENTIFIC MEDICINE*, (5).
4. Sh, G. S. (2020). Ichak ta'sirlanish sindromidagi psixoemotsional buzilishlar va unda psixoterapevtik yordam ko'rsatish.



5. Maxamatjanova, N. (2019). Evaluation of the effectiveness of psychopharmacotherapy and psychotherapy in the complex treatment of systemic lupus erythematosus. *Journal of the Neurological Sciences*, 405, 125.
6. Юсупходжаева, С. Т. (2020). ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ БОЛЬНЫХ РЕВМАТОИДНЫМ АРТРИТОМ И МЕТОДЫ ИХ ПСИХОКОРРЕКЦИИ. In *Global Science and Innovations 2020* (pp. 170-174).
7. Гафурова, С. Ш., & Юсупходжаева, С. Т. (2024). ТРЕВОЖНО-ФОБИЧЕСКИЕ РАССТРОЙСТВА ПРИ СИНДРОМЕ РАЗДРАЖЕННОГО КИШЕЧНИКА И ЭФФЕКТИВНОСТЬ ПСИХОТЕРАПИИ И ПСИХОФАРМАКОТЕРАПИИ ПРИ НИХ.
8. Юсупходжаева, С. Т. (2020). Психоэмоциональные расстройства при ревматоидном артрите и методы их психокоррекции. *Журн. Неврология*, (3).
9. Гафурова, С. Ш., & Юсупходжаева, С. Т. (2024). Identification of anxiety-phobic disorders in irritable bowel syndrome and improvement of medical psychological support in them.
10. Rasulova, R. B. (2025). DEVELOPING GENERAL EDUCATION SCHOOL STUDENTS' TEXT PRODUCTION COMPETENCIES THROUGH EFFECTIVE USE OF THE "STORY WITHIN A STORY" TECHNIQUE. *Mental Enlightenment Scientific-Methodological Journal*, 6(04), 297-311.
11. Rasulova, V., & Saidov, S. (2025). TAU-BASED THERAPEUTICS IN ALZHEIMER'S DISEASE: WHERE WE ARE AND WHAT LIES AHEAD. *Естественные науки в современном мире: теоретические и практические исследования*, 4(5), 67-71.
12. Rasulova, V., & Saidov, S. (2025). AN OVERVIEW OF ALZHEIMER'S DISEASE THERAPIES AND THEIR CLINICAL LIMITATIONS. *Инновационные исследования в современном мире: теория и практика*, 4(11), 12-16.
13. Batirovna, R. V., & Sharipovna, B. S. (2021). Change in phospholipid composition and activity phospholipase A2 in hyperglycemia. *ACADEMICIA: AN INTERNATIONAL MULTIDISCIPLINARY RESEARCH JOURNAL*, 11(1), 1023-1027.
14. Расулова, В. Б., Кариева, М. Т., & Ибрагимова, Ш. А. (2021). ИЗУЧЕНИЕ ФОСФОЛИПИДНОГО СОСТАВА МЕМБРАН МИТОХОНДРИЙ ГЕПАТОЦИТОВ ПРИ ГИПЕРГЛИКЕМИИ. *POLISH SCIENCE JOURNAL*, 238.
15. Мусурмонкулов, Ж. М., Кадиров, М. А., Расулова, В. Б., & Шадманов, К. К. АЛКОГОЛ ИНТОКСИКАЦИЯ СИДА БОШ МИЯ ЖАРОҲАТЛАРИНИНГ ОФИРЛИК ДАРАЖАСИНИ ЭКСПЕРТ БАҲОЛАШ МЕЗОНЛАРИ. *FARMATSIYA VA FARMAKOLOGIYA FARMAZIYA I FARMAKOLOGIYA PHARMACY & PHARMACOLOGY*, 68.
16. Webb, S. (2019). Incidental vocabulary learning. In S. Webb (Ed.), *The Routledge Handbook of Vocabulary Studies* (pp. 225-239). Routledge.



17. Laufer, B. (2018). The three 'I's of second language vocabulary learning: Input, instruction, involvement. *Language Teaching*, 51(2), 233-248.
18. Рахмонкулова, О. А. (2022). ЎЗБЕКИСТОН ИЖТИМОЙ-СИЁСИЙ. ИҚТИСОДИЙ ВА МАДАНИЙ СОҲА ИСЛОҲОТЛАРИДА ХОТИН-ҚИЗЛАРНИНГ ЎРНИ (ЖАНУБИЙ ВИЛОЯТЛАР МИСОЛИДА, 1991–2020 ЙЙ.), 10(11).
19. Рахмонкулова, О. А. (2022). РАСШИРЕНИЕ УЧАСТИЯ ЖЕНЩИН В ПОЛИТИЧЕСКОЙ ЖИЗНИ–ВАЖНЫЙ ФАКТОР ПРОВОДИМЫХ РЕФОРМ В УЗБЕКИСТАНЕ. In *The 8th International scientific and practical conference “Modern directions of scientific research development” (January 26-28, 2022)* BoScience Publisher, Chicago, USA.
20. Richards, J. C., & Rodgers, T. S. (2014). *Approaches and Methods in Language Teaching*. Cambridge University Press.
21. Warschauer, M. (2000). “The changing global economy and the future of English teaching.” *TESOL Quarterly*, 34(3), 511–535.
22. Бах, S. (2003). “CALL—past, present and future.” *System*, 31(1), 13–28.
23. Oxford, R. (2003). *Language Learning Styles and Strategies*. Oxford University Press.